

**ADABIYOTSHUNOSLIK. TARJIMASHUNOSLIK**  
**LITERATURE. TRANSLATION STUDIES**

**Akromjon Dehqonov**

(Toshkent, O'zbekiston)

akromjon@navoiy-uni.uz

## **“Saloti Mas’udiy” – Muhayyir tarjimasida**

### **Abstrakt**

Qo'qon adabiy muhitidan yetishib chiqqan iste'dodli shoir Muhayyir mohir tarjimon sifatida ham faoliyat olib borgan. XV asrda yozilgan Mas'ud ibn Yusuf Samarqandiyning shariat hukmlari sharhiga bag'ishlangan "Saloti Mas'udiy" kitobini o'zbek tiliga tarjima qilgan. O'z davrida madrasalarda mazkur kitobga ehtiyoj katta bo'lib, turkiy tildagi tarjimasi yo'q edi. Muhayyir ilk marotaba bu murakkab ishni amalgalashiradi. Kitobni tarjima qilish jarayonida asarning aslligini, kitobxonga tushunarli bo'lishini ta'minlaydi. Kitob oxirida Muhayyir nashr uchun yozilgan so'ngso'z ilova qiladi. Unda Muhayyirni ushbu kitob tarjimasiga undagan omillar va yana ayrim ma'lumotlar berilgan. Maqolada kitob debochasi, xotima va so'ngso'z xususida ma'lumot beriladi. Tarjimalar asl matnga qiyoslanib, muallifning so'z qo'llashdagi mahorati tahlil qilingan. Yana "Saloti Mas'udiy"ning toshkentlik Rahimxo'ja eshon Alixo'ja eshon tomonidan qilingan tarjimasi haqida ham so'z boradi. Har ikki tarjimaning o'ziga xos xususiyatlari qiyosiy tahlilda ko'rsatiladi.

**Kalit so'zlar:** adabiy muhit, fiqh, tarjima, sharh, debocha, xotima, nazm, nasr.

## **“Saloti Masudi” – Translated by Muhayyir**

### **Abstract**

Growing up in the literary environment of Kokand, the talented poet Muhayyir also worked as a skilled translator. He translated the book "Saloti Masudi" into uzbek, the author is Yusuf Samarqandi that wrote in the 15th century, which is devoted to the interpretation of the rules of Sharia. At one time, the book was in great demand in madrassas, and there was no translation into Turkish. Muhayyir does this complicated job for the first time. In the process of translating the book, he ensures that the work is authentic and understandable to the reader. At the end of the book, Muhayyir adds the final word for the publication. It contains

the factors that prompted Muhayyir to translate this book and some other information. The article introduces the book's prelude, introduction, and conclusion. The translations are compared to the original text, and the author's wording skills are analyzed. There is also a translation of "Saloti Masudi" by Rahimkhoja Eshan Alikhoja Eshan from Tashkent. The specifics of both translations are presented in a comparative analysis.

**Key words:** literary environment, jurisprudence, translation, commentary, preface, introduction, verse, prose.

## **Kirish**

Muhayyirning hayoti va ijodi bo'yicha izlanishlar jarayonida uning "Saloti Mas'udiy" nomli fiqh ilmiga oid forscha kitobni ham o'zbek tiliga tarjima qilgani aniqlandi. Muhayyir tarjima qilgan ushbu kitob hijriy 1324-yilda (melodiy 1906) Toshkentda Abdulvahobboy Dadaboy o'g'li tomonidan nashr etilgan bo'lib, hozirda O'zbekiston Fanlar akademiyasi Abu Rayhon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik instituti bosma kitoblar fondida saqlanmoqda.

Muhayyirning "Saloti Mas'udiy"ni tarjima qilgani "Tazkirai Qayyumiylar"da ham qayd etib o'tilgan [Қайюмов 1998, 338].

Yurtimizdan yetishib chiqqan faqih Mas'ud ibn Yusuf Samrqandiy qalamiga mansub XV asrda yozilgan ushbu kitob shariat hukmlari sharhiga bag'ishlangan bo'lib, Burhoniddin Marg'inoniyining "Hidoya", Ubaydulloh ibn Mas'udning "Muxtasarul viqoya" kabi mo'tabar kitoblari qatorida turgan. Ushbu kitob o'z vaqtida O'rta Osiyo, Hindiston va Afg'onistonda keng tarqalgan va madrasalarda darslik sifatida o'qitilgan. Asli arabcha yozilgan mazkur kitobning bir necha forsiy tarjimalari mavjud bo'lsa-da, lekin uning turkiy-o'zbek tilidagi tarjimasini XIX asrning oxirigacha amalga oshirilmagan edi. Bu mas'uliyatli vazifani birinchi bo'lib amalga oshirgan kishi Qo'qon adabiy muhitidan yetishib chiqqan iste'dodli shoir, mohir tarjimon va yetuk shariat olimi Muhammadqul Muhammadrasul o'g'li Muhayyir bo'ldi.

Muhayyir tomonidan tarjima qilingan mazkur kitob 754 sahifadan iborat. Kitob uch bo'lidan iborat bo'lib, birinchi bo'limda tahorat va unga bog'liq masalalar xususida, ikkinchi bo'lim esa namozga oid hukmlar haqidadir. Uchinchi bo'lim o'n yettita mustaqil qismidan tashkil topgan. Bu bo'limda *zakot, ro'za, haj, nikoh, ijara* va boshqa mavzular ustida so'z yuritiladi, ularga bog'liq shar'iy hukmlar bayon qilinadi.

## **Debocha, xotima va so'ngso'z xususida**

Kitobdan Muhayyir tarafidan nazm va nasrda yozilgan mukammal debocha o'rinni olgan. Kitob oxirida yana Muhayyir

tomonidan bitilgan xotima va bevosita nashr uchun yozilgan so’ng-so’z ham mavjud. Mazkur debocha, xotima va so’ngso’z xususida bat afsil to’xtalib o’tish zarur. Chunki ular Muhayyirni ushbu kitob tarjimasiga undagan sabablarni bilish va yana ayrim ma’lumotlarni aniqlashda ahamiyatlidir.

Debocha an’anaga ko’ra hamd va na’t bilan boshlangan bo’lib, avval nasriy hamd, so’ng she’riy hamd keltiriladi. She’riy hamdda Yaratganning yagonaligi, cheksiz qudrati, bepoyon ilmi va aqllar uning vasfidan lol ekanligi bayon qilinadi:

*Zotini fikrida odam budlar,  
Bud demaykim bori mavjudlar.  
Zirvai avsodidur andoq baland,  
Fikr-u xirad ilki sololmas kamand.  
Dargahining soildur shohlar,  
Ilminidur johili ogohlar.  
Yo’lida aqli uqalo tifli roh,  
Yakkalig’iga hama ashyo guvoh... [Mas’udiy, 2].*

She’riy hamddan so’ng Payg’ambar alayhissalomga na’t boshlanadi. Aytish kerakki, Muhayyir “Saloti Mas’udiy”ga yozgan she’riy hamd va na’tni Alisher Navoiyning “Hayrat ul-abror” dostoni yozilgan *sare’i musaddasi matviyi makshuf* (muftailun muftailun foilun) hamda *sare’i musaddasi matviyi mavquf* (muftailun muftailun foilon) vaznlarida yozgandir.

Muhayyir debochasining to’qson misradan iborat hamd va na’t qismiga mustaqil bir badiiy asar sifatida qarash va she’riyatdagi ilohiy mavzular bilan qiyosiy o’rganish lozim. Hamd va na’tdan so’ng Muhayyir o’zini “Saloti Mas’udiy”ni tarjima qilishga undagan sabablarga to’xtalib, jumladan, shunday yozadi: “*Bir kuni bir do’stkim, kishi aning jismidag’i jon desa bo’lg’ay, aydiki: “Ey she’r bobida so’z nuktapardozi, agarchi sening jonfizo she’ringdin ahli holg’a zavq va shavq yetar va lekin qol ahlig’a oncha maqbul va dilpazir tushmagay. Alar she’rni va shuaroni “Ashshuarou yattabi’uhum-ul g’ovun...” mazmuni bila haqirsanarlar, oyat istisnosidin xabarlariyo’qtur* [Куръони Карим 1992, 340]. *Toki sen devon takmilida umri garonmoyani zoye’ qilursan, ba’zi forsiy mudaqqiq foydaliq kitoblarni yaxshi lafzlar birla turkiy iboratida tarjima qilmoqda qobiliyat va iste’doding bordur. Turkiston xalqi aksarlari forsiy so’zdin bebahradurlar. Sening sa’ying birlan alar zaruriyot masalalar aslidin ogoh bo’lub, hifzida shug’l ko’rguzsalar, alarg’a sababi sarmoyai din va dunyo, senga ham olamda boisi neknomliq va najoti azobi uqbo bo’lsa, fazli ilohiydin ajab bo’limg’ay”* [Mas’udiy, 4].

Muhayyir so’zida davom etib, do’stining bu taklifi uni o’ylantirib qo’yanini, turli sabablar, xususan, moddiy qiyinchilik

tufayli ishga kirisholmay turganini yozadi. Shu orada oliyhimmat bir badavlat kishi topilib, Muhayyirga har tomonlama yordam bergenini, shu tufayli bu mo'tabar kitob tarjimasi nihoyatda tez – bir yilda yakunlanganini hikoya qiladi: "*Ul saodatmand zarrai bemiqdorni quyosh parvarish qilg'ondek meni mazallat xokidin ko'tarib, izzat falakig'a yetkurub, mustag'niy va komyob aylab, kitobi "Saloti Mas'udiy"ni turkiy tilda yozmoqqa buyurdilar. Ma'mur bo'lg'och, dargohi ilohiydin istionat talab qilib, harchand omi ham bo'lsam, bilg'uchi olimlar va donolardin madad umid aylab, istitoatim boricha turkiy tilida yozmoqqa qalam chektim"*" [Mas'udiy, 5].

Muhayyir debochada u saxovatli kishining ismi Sirojiddin Shoshiy ekanligi va o'ziga har tomonlama yordam bergenini mam-nuniyat bilan ta'kidlab o'tadi.

Muhayyir bu fiqhiy kitob tarjimasiga bejiz qo'l urmagan. Ma'lumki, o'sha yillarda ko'p shoirlarning ijodi xususida qattiq bahs ketgan edi. Ba'zi shariat ulamolari Muqimi, Zavqiy, Furqat, Kamiy kabi shoirlarning she'rlari xalqni yo'ldan urayotgani, axloqsizlikka da'vat qilayotgani haqida gapirib, bu mavzuni hatto matbuotga ham ko'tarib chiqqan edilar. Garchi bu masala 1906-1907-yillarda kuchaygan bo'lsa-da, kitob tarjimasi amalga oshirilgan 1885-86-yillarda ham ushbu mavzu kun tartibida turganligi Muhayyirning debochada aytgan fikrlaridan sezilib turadi.

Muhayyir shoirlar xususida qo'zg'algan turli-tuman gaplarga barham berish, eng asosiysi, o'zining ilmidan xalqni bahramand qilish uchun ushbu mo'tabar kitob tarjimasiga kirishadi.

Debochaning nasriy qismi XIX asr oxiridagi o'zbek adabiyotida yaratilgan badiiy nasrning o'ziga xos namunasi sifatida e'tiborlidir. Debochadan keltirilgan quyidagi parcha fikrimizga asos bo'ladi, deb o'ylaymiz: "...faqir Muhammadqul ibn Muhammadrasul, almutaxallis bi Muhayyir andoq arzi hol qilurkim, hayotim bo'stoni yigitlik jo'yboridin shodob bo'lub, nash-u namo paydo qilg'ondin beri ajal xazoni tundboidin vahm-u haros qilmay g'aflat birla ro'zgorim kechurub, har zamon bir ko'yda yugurdum va kerakmas ishlarga o'zumni urdum, nafsim murodin istamakda jahd ko'rguzdum, hoyu havas asbobin tuzdum, harzago'ylikni pesha va behudagarlikni andesha ayladim..." [Mas'udiy, 3].

Debochaning oxirida quyidagi ruboiyni o'qiyimiz:

*Yorab, dilima zikr ila orom etur,  
Ham ilm xazoinidin in'om etur.  
Umid ila Muhayyir aylar og'oz,  
Lutfila bu og'ozig'a anjom etur* [Mas'udiy, 4].

Ruboiyda Muhayyir bu ishni, ya'ni, tarjimani umid bilan boshlayotgani va bu ishiga Yaratgandan madad tilayotganini bayon

qilgan.

Muhayyirning "Saloti Mas'udiy"ga yozgan xotimasi ham ahamiyatga molikdir. Unda shunday yozadi: *"Alhamdu lillahki, bu kitobi sharif maob, ya'ni "Saloti Mas'udiy" kaminai nodoni hechmand, Ho'qandlik Muhammadqul ibn Muhammadrasul almutaxallis bi Muhayyir alidin turkiy tilida yozildi. Musannif alayhirrahmakim, kitob ichidog'i hadislar ba'zisini ta'vil bilan va ba'zisini ishorat bilan ado qilibdurlar va ba'zig'a tarjima yozibdurlar, tabdil berilmay va nechuk yozilg'on bo'lqa, aningdek yozildi va ba'zi betarjimalarni tarjima qilindi... Muningdek ishni oz fursatda ko'ngil xohlagandek qilmoq mushkildur. Bir necha kitoblar kabi iboratoro qilmoqg'a besh-o'n yil fursat kerakdur. Bir yilda yozgan kishi nechuk xush iborat qila olg'ay va yana bir vajh buki, masalada asliy so'zdin o'zga so'zlar gunjoyish qilmag'ay va mubolag'ag'a joy bo'lmag'ay, ma'no vayron bo'lmasliq mo'tabardur..."* [Mas'udiy, 744].

Muhayyirning yuqoridagi so'zlaridan ma'lum bo'ladiki, u muallif matniga nihoyatda ehtiyyotkorlik bilan munosabatda bo'lgan. Shuningdek, tarjima ishi nihoyatda shitob bilan borgani ham ma'lum bo'ladi. Muhayyirning "Saloti Mas'udiy"dek salmoqli va hajmi katta kitobni bir yilda tarjima qilib bitirgani uning nihoyatda qattiq mehnat qilganidan darak beradi.

Xotimaning she'riy qismi to'qson misradan iborat bo'lib, masnaviy yo'lida yozilgan. Unda mutarjim ushbu kitob tarjimasiga undagan va bu ishda har tomonlama yordam bergen do'stlariga minnatdorchilik izhor qiladi:

*Kimi bo'lsa mundoq valine'mati,  
Ne tong, aflokin o'tsa himmati.  
Yo'q erdi suxan derg'a jur'at menga,  
Aning lutfidin yetti himmat menga.  
Yana bir taraf Zavqiyi nomdor,  
Qilib holima lutflar oshkor,  
Damodam menga yetkurub yorlig',  
Berur erdi ko'ngluma dildorlig'...* [Mas'udiy, 745].

Keltirilgan parchadan ma'lum bo'ladiki, Muhayyirga yordam qo'lini cho'zgan kishilar orasida shoir Ubaydullo Zavqiy ham bo'lgan. Bu fakt ham Muhayyirning yurtdosh va fikrdosh shoirlar bilan yaqin munosabatda bo'lganligiga yana bir dalildir.

She'riy xotimada Muhayyir tarjimaga sarf bo'lgan muddat, ishning jarayonlari va yana ba'zi voqealar haqida ma'lumot berib o'tadi:

*Yozib turkiy bir yilda bu omi turk,  
Iki qatla mundoq kitobi buzurk.  
Biri olti oy ichra bo'lg'och tamom,*

*Aning yuzidin ko'rguzub ehtimom,  
Tikib ko'zni, himmatni aylab baland,  
Solib avji maqsud sori kamand.  
So'zimg'a maoni arusini aqd  
Qilurda bo'lub nasya – jon, fikr – naqd.  
Yozib donishim boricha subh-u shom,  
Yana ayladim olti oyda tamom.  
Burun yozg'onim garchi bo'ldi kitob,  
Ikinchini ollida topmas hisob ... [Mas'udiy, 745].*

Demak, Muhayyir o'sha bir yil ichida "Saloti Mas'udiy" dan tashqari yana bitta kitobni tarjima qilgani yuqoridagi misralardan ma'lum bo'lyapti. Bu ma'lumot ham yana yangi izlanishlarni talab qiladi.

"Saloti Mas'udiy" ga bitilgan mutarjim debochasidan ma'lum bo'ladiki, ushbu debocha tarjimaga kirishish oldidan yozilgan. Xotimaning mazmunidan shu narsa aniqlashadiki, xotima asarning tarjimasi tugallanishi bilanoq qog'ozga tushirilgan. Lekin debochada ham, xotimada ham tarjimaning tugatilgan yili ko'rsatilmagan. Xo'sh, unda tarjima qachon, qaysi yilda amalgalashirilgan?

Ushbu savolga tarjimonning nashr uchun yozgan so'ngso'zidan javob topamiz. Biz yuqorida kitob 1906-yilda chop etilganini aytib o'tdik. So'ngso'zni esa Muhayyir bevosita kitobni nashr etilishi arafasida yozgan. Unda, jumladan quyidagi so'zlarni uchratamiz: "...*Bu faqirni turkiy zabolida tarjima qilg'onig'a holo*, (ayni vaqtida, hozirda, ya'ni 1906-yilda - A.D.) *yigirma bir yil bo'lg'ondur. O'shal muddatdin buyon mudaqqiqlar qo'llarig'a necha martaba tushub, nusxani hech bir kalimasig'a xatti button tortg'oni yo'q erdi...*" [Mas'udiy, 754].

Demak, tarjimonning e'tirofidan ma'lum bo'ladiki, "Saloti Mas'udiy" 1885-86-yillarda, ya'ni Muhayyir Buxorodan qaytib kelishi bilanoq turkiyga o'girilgan. Bu paytda shoir 43-44 yoshlarda bo'lib, ayni ijodiy kamolotga yetgan payti edi. Kitob yigirma bir yil davomida, ya'ni to nashr etilgunicha qo'lyozma holida mutolaa qilingani Muhayyirning yuqoridagi e'tirofidan ma'lum bo'ladi.

### **"Saloti Mas'udiy" tarjimalari xususida**

Aytish lozimki, ushbu "Saloti Mas'udiy" kitobi toshkentlik Rahimxo'ja eshon Alixo'ja eshon o'g'li ismli boshqa bir kishi tarafidan ham tarjima qilinib, nashr etilgan edi. Rahimxo'ja eshon tarjimasidagi "Saloti Mas'udiy" uch marta: 1905-yilda Samarqandda, 1906 va 1911-yillarda esa Toshkentda nashr qilingan. Vaholanki, Muhayyir bu kitob tarjimasini yigirma bir yil avval amalgalashirgan edi. Rahimxo'ja eshon, aniqki, Muhayyir tarjima qilgan nusxdadan yaxshi xabardor bo'lgan. Va u ba'zi davralarda Muhayyir tarjimasini

kamsitibroq gapirgan bo'lsa kerak. Bu gaplar Muhayyirning qulog'iqa yetib borgani uchun bo'lsa kerak, tarjimaga yozgan so'ngso'zida bu xususda og'rini shunday deydi: "...*Rahimxo'ja nusxani* (ya'ni Muhayyir tarjima qilgan "Saloti Mas'udiy"ni – A.D.) *ko'rgan yo'q erdi, g'alatligini nechuk bilidur. Fazl va kamoli "Muxtasar"ni turkiy nazm qilg'onda ma'lum bo'lub erdi. Emdi nazzoragarlar ko'rub, bunday noloyiq so'zлari javobini o'qub bilg'onlarida va har ikki tarjimaga* (Muhayyir va Rahimxo'ja eshon tarjimasiga – A. D.) *vaqt tab'i birla* (nashr etilgan vaqt e'tibori bilan – A.D.) *nazora qilg'onlarida albatta, Rahimxo'janing qilg'on tarjimasini maoli* (ulug'lar – A.D.) *ko'zidin yiroq tushub, kamina mutarjim bitaxallusi Muhayyirni qilg'on tarjimasini e'tiborlik bo'lsa, ajab emas...*" [Mas'udiy, 754].

Muhayyirning yuqoridagi e'tirozini asossiz deb bo'lmaydi. Rahimxo'ja Alixo'ja o'g'li muslimmon qonunshunosligidagi eng mo'tabar qo'llanmalardan bo'lgan Burhoniddin Marg'inoniyning "Hidoya" kitobidan Ubaydulloh ibn Mas'ud qisqartirib ta'lif qilgan "Muxtasar ul-viqoya" asarini turkiyga o'girgan edi. Bu tarjima muvaffaqiyatsiz chiqib, juda keskin e'tirozlarga sabab bo'ladi. Muhayyir yuqorida shunga ishora qilib o'tgan.

Har ikki tarjimani ham muvaffaqiyatlari chiqqan deyish mumkin. Chunki agar shunday bo'lmaganda, Rahimxo'janing tarjimasini o'n yil ichida uch marta chop etilmas edi. Muhayyir tarjimasining ham muvaffaqiyatlari chiqqaniga dalil shuki, u o'z tarjimasini ulamolar nazaridan o'tkazganda, ulardan hech biri asar tarjimasiga e'tiroz qilmaganini kitobga yozilgan so'ngso'zda ta'kidlab o'tadi: Bu "...*mudaqqiqlar qo'llariga necha martaba tushub, nusxani hech bir kalimasiga xatti butlan tortg'oni yo'q erdi...*" [Mas'udiy, 754].

Albatta, har ikki tarjima, ikki mutarjimning ijod mahsuli o'ziga xos jihatlarga ega. Ammo tarjimonlarning uslubiga nazar solsak, Muhayyirning matnlarni tushunarliroq va tilimiz qoidalariga muvofiq qilib, zarur sharh va izohlar bilan tarjima qilgani ko'zga tashlanadi. Masalan, quyidagi hadisning har ikki mutarjim tomonidan amalga oshirilgan tarjimasiga e'tibor beraylik: "*Man ahabbal ilma val ulama lam tuktab alayhi xatiyatuhu muddata hayvonih*" (Hadis matni arabcha bo'lib, har ikki tarjimon uni arabchadan to'g'ridan-to'g'ri tarjima qilgan).

Muhayyir tarjimasini: "*Rasul alayhissalom aydilarki: "Har bandai mo'min ilmni va ulamoni do'st tutsa, muddati umrida qilg'on gunohlari yozilmag'ay"*" [Mas'udiy, 6].

Rahimxo'ja Alixo'ja o'g'li tarjimasini: "*Rasul alayhissalom aydilarki: "Har kimki do'st tutsa ilmni va ulamoni, ul kishini xato ishlari yozilmas tirikligi boricha"*" [Mas'udiy, 5].

Har ikki tarjimada ma'no to'liq saqlangan. Lekin Muhayyir matnni to'liq o'zbekcha asosda, o'zbek tilining qoidalariga mos

ravishda o'girgan, Rahimxo'ja Alixo'ja o'g'li esa arabcha gap qurilishini saqlagan holda tarjima qilgan.

Yoki quyidagi forsiy matn tarjimasiga diqqat qilaylik:

*"Rasul alayhissalom farmudast: "Panj gunohi kabir ast, ki vayro dar dunyo kafforat nest: Shirk ovardan ba'd az iymon va ozori modar va padari kardan va dar harb yak mo'min az du kofir ro'ygardanidan, ki g'olibi halokat nabuvad, savgandi badurug' xurdan, ya'ni yamini g'amus va xun banohaq kardan hamchunon, ki in panj gunohi kabiraro dar dunyo kafforat nest"* [Mas'udiy, 50].

Rahimxo'ja Alixo'ja o'g'li tarjimasi: *"Rasul alayhissalom aytib-durlar: "Besh nimarsa gunohi kabiradurlarkim, alarg'a bu dunyoda kafforat yo'q: Olloh taolog'a shirk keltirmoq iymon kelturg'ondin so'ng, va ota va onalarg'a ozor yetkurmoq va urushda bir mo'min ikki kofirdan yuz o'gurmoq g'olib halok bo'lmag'on holda va yolg'on qasam ichmoq, ani yamin g'amus derlar va nohaq qon to'kmoq, chunonki bu besh gunohlarg'a bul dunyoda kafforat yo'qtur"* [Mas'udiy, 48].

Muhayyir tarjimasi: *"Rasul alayhissalom aydilariki: "Besh nimarsa gunohlarni ulug'rog'idur; bu besh gunohg'a dunyoda kafforat yo'qtur: Avvali iymon keltirgondin so'ng Xudovand taolog'a shirk keltirmoq va ota-onag'a befarmonliq qilmoq va alarga ozor bermoq va jang vaqtida bir mo'min ikki kofirdan yuz o'gurmoq, agar haloklik g'olib bo'lmasa, va yolg'on qasam ichmog'liq, ya'ni yamin g'amus. "G'amus" ul qasamdurkim, aning birla odamlarni haqqi zoye' bo'lur. Va yana bir mo'minni qonini nohaq to'kmak va bir rivoyatda mutlaq qon to'kmakdur"* [Mas'udiy, 50].

Olingen parchalardan ko'rinish turibdiki, Muhayyir o'z tarjimasini nihoyatda daqiqlik va ilmiylik bilan amalga oshirgan. Masalan, uning "g'amus" so'ziga bergan izohi nihoyatda qisqa va aniq chiqqan. Ya'ni, yolg'on qasamning eng yomon turi – birovlarining haqqini yenish, o'zlashtirish uchun ichilajagini izohlab o'tadi. Bu zarur izoh Rahimxo'ja tarjimasida mavjud emas. Bunga o'xshash Muhayyir tarjimasining afzal jihatlarini ko'rsatuvchi misollar anchagina topiladi.

*"Saloti Mas'udiy"* sof ilmiy asar bo'lib, tarjimonning imkoniyatlarini ancha cheklaydi, unga o'z san'atini to'liq namoyish qilishga, so'zlarni erkin ishlatishga imkoniyat bermaydi. Buni Muhayyir tarjimaga yozgan xotimasida ham alohida ta'kidlab o'tadi: *"Bir yilda yozgan kishi nechuk xush iborat qila olg'ay va yana bir vajh buki, mas'alada asliy so'zdin o'zga so'zlar gunjoyish qilmag'ay va mubolag'ag'a joy bo'lmag'ay, ma'no vayron bo'lmasliq mo'tabardur"* [Mas'udiy, 744].

## Xulosa

Biz aslida arabcha yozilgan, keyin fors tiliga tarjima qilingan,

undan turkiyga o'girilgan mo'tabar fiqhiy asarning tarjimalari xususida qat'iy bir fikr aytishdan ojizmiz. Biz ushbu o'rinda "Saloti Mas'udiy"ning 1911-yilda Toshkentda V.M.II'in tipo-litografiyasida nashr qilingan tarjimasiga kitob noshiri yozgan so'zboshidagi gaplarni keltiramiz. O'ylaymizki, ushbu so'zboshidan olingan parcha ba'zi masalalarga oydinlik kiritadi: "...Va yana maxfiy qolmasunkim, ushbu "Saloti Mas'udiy"ni ikkinchi chop qilinmog'iga mutarjim Rahimxo'ja eshonni umrlari vafo qilmay, marhum o'ldilar. Shul sababdin kamina Mullo Mirmaxdum Shohyunus marhum o'g'li chop qilmoqg'a ehtimom qilib, ushbu kitob barobarida chop bo'lg'on Ho'qandlik fozilning (ya'ni Muhayyirning – A.D.) tarjima qilg'on turkiy "Saloti Mas'udiy"larini ulamolarg'a imtiyoz qilib bermoqqa topshurdim. Muddati ikki oy mulohaza qilib ko'rdilar. So'ngra kamina iltimos qildim: "Ushbu nuxsalarni qaysi birig'a javob bersalar, qilsam" - dedim. Janobi oliylari dedilarki: "Har ikki nuxxani bir-biriga xo'p tadbiq qilib ko'rdik. Ikkovi ham bir bog'ni gulidur" - deb har ikki mutarjimning qilg'on diqqatlarig'a duoyi xayr qildilar" [Mas'udiy, 3].

Noshirning so'zlaridan ham ma'lum bo'ladiki, o'sha davrning e'tiborli ulamolari har ikki tarjimani ham muvaffaqiyatlgi hisoblaganlar. Ulamolar tarjimalarning fazilatini ta'kidlagan holda, marhumning hurmati yuzidan Rahimxo'ja eshonning tarjimasini chop etishga noshir Mullo Mirmaxdum Shohyunus o'g'liga ijozat bergenlar. Agar ikki tarjimaning saviyasida keskin farq bo'lganda, ulamolar albatta, buni hisobga olar edilar.

Xullas, Muhammadqul Muhammadrasul o'g'li Muhayyirning "Saloti Mas'udiy"dek mo'tabar fiqhii kitobni fors tilidan turkiyga tarjima qilganligi uning yuksak ilmiy va tarjimonlik mahoratiga ega bo'lganini bildiradi. Shu bilan birga, Muhayyirning tarjimonlik faoliyati uni Qo'qon adabiy muhitidagi boshqa shoirlardan farqlovchi alohida fazilat sifatida e'tirof qilinishi lozim.

### Adabiyotlar

Muhayyir. Devon. O'zR FASHI. Qo'lyozma. №7493.

Muhayyir. Bayoz. O'zR FASHI.Qo'lyozma. №682.

Muhayyir. Devon. O'zR FA Davlat adabiyot muzeyi. Qo'lyozma. №241.

Мұхәййир. 1967. Танланған асарлар. Нашағра тайёрловчы А.Азизов. Тошкент: Фан.

Mas'ud ibn Yusuf Samarqandiy. *Saloti Mas'udiy*. O'zR FASHI. Toshbosma. №6942.

Mas'ud ibn Yusuf Samarqandiy. *Saloti Mas'udiy*. O'zR FASHI. Toshbosma. 7971.

Mas'ud ibn Yusuf Samarqandiy. *Saloti Mas'udiy*. O'zR FASHI. Toshbosma. № 10401.

Mas'ud ibn Yusuf Samarqandiy. *Saloti Mas'udiy*. O'zR FA SHI. Toshbosma. № 19111.

Қайюмов, Пұлатхон. 1998. *Тазқирау Қайюмий*. З-дафтар. Тошкент.

### **References**

- Muhayyir. *Devon*. O'zR FA SHI. Qo'lyozma. №7493.
- Muhayyir. *Bayoz*. O'zR FA SHI. Qo'lyozma. №682.
- Muhayyir. *Devon*. O'zR FA Davlat adabiyot muzeyi. Qo'lyozma. №241.
- Muhayyir. 1967. *Tanlangan asarlar*. Nashrga tayyorlovchi A.Azizov. Toshkent: Fan.
- Mas'ud ibn Yusuf Samarqandiy. *Saloti Mas'udiy*. O'zR FASHI. Toshbosma. №6942.
- Mas'ud ibn Yusuf Samarqandiy. *Saloti Mas'udiy*. O'zR FA SHI. Toshbosma. 7971.
- Mas'ud ibn Yusuf Samarqandiy. *Saloti Mas'udiy*. O'zR FA SHI. Toshbosma. № 10401.
- Mas'ud ibn Yusuf Samarqandiy. *Saloti Mas'udiy*. O'zR FA SHI. Toshbosma. № 19111.
- Qayyumov, Po'latxon. 1998. *Tazkirai Qayyumiylar*. 3-daftар. Toshkent.

**Muallif haqida:** *Dehqonov Akromjon Qodirovich* – filologiya fanlari nomzodi, dotsent, Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti.

**Iqtibos uchun:** Dehqonov, A. Q. 2020. "Saloti Mas'udiy" – Muhayyir tarjimasida". *O'zbekiston: til va madaniyat* 2: 47–56.

**About the author:** *Akromjon Q. Dehqonov* – Candidate of Sciences in Philology, Associate Professor, Tashkent State University of Uzbek Language and Literature named after Alisher Navo'i.

**For citation:** Dehqonov, A. Q. 2020. "Saloti Masudi" – Translated by Muhayyir". *Uzbekistan: Language and Culture* 2: 47–56.